


B-01-07/630
27.11.2025yil



Viloyat hokimligida o'tkazilgan yig'ilishning
B-01-07/630 - son BAYONI

Raislik qildi: M.B.Azimov - Qashqadaryo viloyati hokimi

Qatnashdilar: Viloyat hokimining o'rinbosarlari, kotibiyat mudirlari, viloyatdagi barcha boshqarma, korxona, tashkilotlar rahbarlari va tuman (shahar) hokimlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kunini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida

(Azimov, Sayipov, Ismoilov, Qodirov, Qobilov, Kushakov, Aminova, Raxmankulov,, Azimov)

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalarni hamda amalga oshiriladigan ishlar muhokama qilinib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan viloyat hokimining o'rinbosari A.Qobilov va Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i J.Raxmanqulovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kuni" munosabati bilan joriy yilning **30-noyabridan 30-dekabriga** qadar viloyatda "Mehr-muruvvat oyli" o'tkazilsin.

3. Quyidagilar "Mehr-muruvvat oyli"ning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlash yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

nogironligi bo'lgan shaxslarni tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiya qilish orqali ularni jamiyatga integratsiya qilish, ushbu mavzularga bag'ishlangan ilmiy-amaliy seminarlar, davra suhbatlarini o'tkazish;

nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ommaviy-madaniy, xayriya tadbirlari tashkil etish, bu borada davlat organlari, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish.

4. “3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo‘lgan shaxslar kuni” munosabati bilan mehr-muruvvat oyligini o‘tkazish bo‘yicha **viloyat ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga**;

“Mehr-muruvvat oyligi”ni o‘tkazish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi **2-ilovaga**;

“Xayriya aksiyasi” tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi **3-ilovaga**;

“Xayriya aksiyasi” doirasida tushgan mablag‘larni adolatli jamlanishini nazorat qilish va nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan bevosita ishlovchi jamiyatlarga shaffof tarzda taqsimlash bo‘yicha maxsus komissiya tarkibi **4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

5. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (**Qodirov, Qobilov, Kushakov, Aminova**), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi (**Raxmankulov**), tuman (shahar) hokimliklari:

“3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo‘lgan shaxslar kuni” munosabati bilan mehr-muruvvat oyligini yuqori saviyada o‘tkazilishini ta‘minlasin;

o‘tkaziladigan amaliy chora-tadbirlar doirasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni to‘liq qamrab olish choralarini ko‘rsin;

viloyat ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazi va “Muruvvat” internat uylarida vasiylikka olinganlarga, viloyat reabilitatsiya qilish va protezlash markazi, ixtisoslashgan maktab-internatlar o‘quvchilari, uyida ta‘lim olayotgan nogironligi bo‘lgan bolalar, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan nogironligi bo‘lgan bolalar, kambag‘allik reyestriga kiritilgan oilalardagi nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj yakka yolg‘iz keksalar, yolg‘iz istiqomat qiluvchi keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning uyiga borib, ularning holidan xabar olish, ularga turli xil moddiy va ma‘naviy yordam bersin;

nogironligi bo‘lgan shaxslarning uylariga borib ularning holidan xabar olish, zarur oziq-ovqat, gigiyenik vositalar, dori-darmon va kiyim-kechaklar va boshqa sovg‘alar tarqatish hamda “yashil makon” loyihasi doirasi uylariga ko‘chatlar ekishni tashkil qilsin;

2025-yil 30-dekabrga qadar O‘zbekiston nogironlar jamiyati viloyat bo‘limi bilan birgalikda o‘zgalar parvarishiga muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxslarning uylariga borib, ularga maxsus ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko‘rsatsin.

6. Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi (**Qurbonov**):

joriy yilning 25-dekabrga qadar har bir tuman (shahar)da ijtimoiy og‘ir sharoitdagi nogironligi bo‘lgan shaxslarni bepul tibbiy, laborator-funksional diagnostikadan o‘tkazish, davolash, jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish va sog‘lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirsin;

bayram tadbirlari o‘tadigan joylarda tibbiy yordam punktlarini tashkil etish hamda asosiy bayram tadbirlari o‘tkaziladigan binolarda muntazam sanitariya-gigiyena qoidalarga rioya etilishini ta‘minlasin.

7. “3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo‘lgan shaxslar kuni” munosabati bilan mehr-muruvvat oyligini o‘tkazish yuzasidan nogironligi bo‘lgan shaxslarning xolidan xabar olish va ularga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha viloyat, tuman (shahar) tashkilotlar rahbarlarini biriktirish ro‘yxati **5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

Bunda, viloyat, tuman (shahar) tashkilotlari rahbarlari mehr-muruvvat oyligida o'zlariga birlashtirilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning xolidan xabar olish hamda bayram kayfiyati ulashish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlasin.

8. Markaziy banki viloyat bosh boshqarmasi (Ubaydullaev), Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi viloyat boshqarmasi (**Rajabov**), Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi (**Raxmankulov**), "Xalq banki" viloyat filiali (**Nurxonov**) "3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kuni" munosabati bilan barcha nogironligi bo'lgan shaxslarga to'lanadigan nafaqa va pensiya to'lovlarini o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlash topshirilsin.

9. Viloyat bojxona boshqarmasi (Fayzullayev) viloyat ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi, viloyat nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash markazi, Shahrisabz va Qarshi "Muruvvat" nogironligi bo'lgan shaxslar uchun internat uylarida viloyat bojxona boshqarmasi mas'ullari tomonidan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etsin.

10. Nogironlar jamiyati viloyat bo'limi (Botirov), viloyat ko'zi ojizlar jamiyati (Po'latov), viloyat karlar jamiyati (Boymurodova), O'zbekiston "VETERAN" jangchi-faxriy va nogironlari birlashmasi viloyat bo'limi (**Chorshanbiyev**) bilan birgalikda "Mehr-muruvvat" oyligi davomida o'tkaziladigan amaliy chora-tadbirlarni uyushgan holda tashkil etishda faol ishtirok etish tavsiya etilsin.

11. Tuman (shahar) hokimlari:

uch kun muddatda "3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kuni" munosabati bilan mehr-muruvvat oyligini o'tkazish yuzasidan hududiy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin;

besh kun muddatda Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi madaniyat boshqarmasi, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi, Badiiy akademiya viloyat bo'limi, Nogironlar jamiyati viloyat bo'limi, respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi, viloyat Yoshlar ishlari boshqarmasi bilan birgalikda hududda "Mehr-muruvvat oyligi" davomida keksalar, yolg'izlar, nogironligi bo'lgan shaxslarning uylariga borib, ularning holidan xabar olish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarining grafiklarini tasdiqlasin;

har bir tuman (shahar)da kamida **4-5 nafardan** ehtiyojmand yolg'izlar va nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'mirtalab uy-joylarini homiylik mablag'lari hisobidan ta'mirlab berish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

12. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (Sodiqov), viloyat teleradiokanali (To'ychiyev):

joriy yil 1-dekabrga qadar "Xayriya aksiyasi" o'tkazilishi va boshqarma, tashkilot va muassasalar hamda barcha fuqarolarning faol qatnashishi bo'yicha OAVda e'lon bersin;

"Mehr-muruvvat oyligi" davomida ommaviy axborot vositalarida "3-dekabr - Xalqaro nogironligi bo'lgan shaxslar kuni"ga bag'ishlangan maxsus maqola, ko'rsatuv, eshittirishlar tashkil etsin;

viloyatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy muhofazasi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ish o'rinlari

haqidagi ma'lumotlar yoritilib, barcha ko'rsatuvlar subtitrlar yoki surdo tarjima yordamida yoritilishini ta'minlash tavsiya etilsin;

13. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov, viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Qobilov va F.Kushakov zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtiruvchi



Sh.Toshpulatov



(H. Rahmatullayev)



(U. Koryukov)

**“3-dekabr – Xalqaro nogironligi bo‘lgan shaxslar kuni” munosabati bilan
“Mehr-muruvvat oyligi”ni o‘tkazish bo‘yicha viloyat
ISHCHI GURUHI TARKIBI**

1. A.Qobilov - Viloyat hokimining o‘rinbosari,
Ishchi guruh rahbari
2. Z.Aminova - Viloyat hokimining o‘rinbosari - viloyat oila va
xotin-qizlar boshqarmasi boshlig‘i,
Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
3. J.Raxmankulov - Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi
boshlig‘i, **Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari**
4. A.Ismoilov - Viloyat ishchi ishlar boshqarmasi boshlig‘i
5. O.Ravshanov - O‘zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat
boshqarmasi boshlig‘i
6. D.Ubaydullaev - Markaziy banki viloyat bosh boshqarmasi boshlig‘i
7. A.Rajabov - Pensiya jamg‘armasi viloyat boshqarmasi boshlig‘i
8. F.Muxammadiyev - Viloyat kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasi boshlig‘i
9. K.Nurxonov - “Xalq banki” viloyat filiali boshqaruvchisi
10. N.Qurbonov - Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i v.b.
11. B.Yazdanov - Viloyat transport boshqarmasi boshlig‘i
12. U.Oripov - Viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi
boshlig‘i
13. I.To‘raev - Viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
14. J.Fayzullayev - Viloyat bojxona boshqarmasi boshlig‘i
15. B.Djurayev - O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining
viloyat Kengashi raisi
16. A.Ahmedov - Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi
boshlig‘i
17. J.To‘ychiyev - Viloyat teleradiokanali direktori
18. N. Bazarova - Viloyat nogironlar assotsiatsiyasi raisi
19. B.Botirov - Nogironlar jamiyati viloyat bo‘limi raisi
20. X.Po‘latov - Ko‘zi ojizlar jamiyati viloyat bo‘limi raisi
21. M.Boymurodova - Karlar jamiyati viloyat bo‘limi raisi
22. N.Chorshanbiyev - “Veteran” jangchi-faxriy va nogironlari birlashmasi
bo‘limi raisi
23. Sh.Ziyadov - Ijtimoiy himoya milliy agentligi viloyat boshqarmasi
axborot-tahlil bo‘yicha bosh mutaxassis,
Ishchi guruh kotibi